

**O‘ZBEKISTONDA TIJORAT BANKLARIDA MIKROQARZLARNI  
NAZORAT QILISH MEXANIZMLARINING SAMARADORLIGINI  
BAHOLASH VA TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20003469>

*Ilmiy rahbar: Arziboyeva Ravzaxon Satarovna*

*Andijon davlat texnika instituti*

*Buxgalteriya hisobi kafedrasi katta o‘qituvchisi,*

**Muhammadsoliyev Shaxzodbek Elmurodjon o‘g‘li**

*Andijon davlat texnika instituti*

*“Iqtisodiyoti va boshqaruv” fakulteti*

*“Bank ishi va audit” yo‘nalishi 4-kurs talabasi*

*Email: [shaxzodbekmuhammadsoliyev8@gmail.com](mailto:shaxzodbekmuhammadsoliyev8@gmail.com)*

**Annotatsiya**

Ushbu ilmiy maqolada O‘zbekiston tijorat banklarida mikroqarzlarini ajratish va ularni nazorat qilish tizimining amaldagi holati, ushbu jarayonda yuzaga kelayotgan kredit risklari hamda muammoli kreditlar (NPL) darajasiga ta‘sir etuvchi omillar kompleks tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida bank tizimining barqarorligi va risklarni boshqarish masalalari bo‘yicha Asli Demirg‘uch-Kunt hamda Luc Laeven ilmiy yondashuvlari asos qilib olindi. Shuningdek, xalqaro va mahalliy tadqiqotlar natijalari asosida mikroqarzlarning portfelida muammoli kreditlarning shakllanishiga ta‘sir etuvchi makroiqtisodiy va ichki bank omillari o‘rganildi. Tadqiqot natijasida kredit risklarini samarali boshqarish, nazorat mexanizmlarini kuchaytirish va muammoli kreditlar ulushini kamaytirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi.

**Kalit so‘zlar**

Mikroqarzlarning, kredit riski, muammoli kreditlar (NPL), bank barqarorligi, kredit portfeli, risk boshqaruvi, makroiqtisodiy omillar, tijorat banklari, Basel tamoyillari.

**Аннотация**

В данной научной статье всесторонне анализируется текущее состояние системы распределения и контроля микрокредитов в коммерческих банках Узбекистана, кредитные риски, возникающие в этом процессе, и факторы, влияющие на уровень невозвратных кредитов (НПЛ). Исследование основано

на научных подходах Asli Демиргуч-Кунт и Люка Лаэвена к вопросам стабильности банковской системы и управления рисками. Также, на основе результатов международных и локальных исследований, изучены макроэкономические и внутренние банковские факторы, влияющие на формирование проблемных кредитов в портфеле микрокредитов. В результате исследования разработаны научно-практические предложения по эффективному управлению кредитным риском, усилению механизмов контроля и снижению доли проблемных кредитов.

#### **Ключевые слова**

Микрокредиты, кредитный риск, невозвратные кредиты (НПЛ), стабильность банка, кредитный портфель, управление рисками, макроэкономические факторы, коммерческие банки, Базельские принципы.

#### **Abstract**

This scientific article comprehensively analyzes the current state of the microloan allocation and control system in commercial banks of Uzbekistan, the credit risks arising in this process, and the factors affecting the level of non-performing loans (NPL). The research was based on the scientific approaches of Asli Demirgüç-Kunt and Luc Laeven on the issues of banking system stability and risk management. Also, based on the results of international and local research, macroeconomic and internal banking factors affecting the formation of problem loans in the microloan portfolio were studied. As a result of the research, scientific and practical proposals were developed for effective credit risk management, strengthening control mechanisms, and reducing the share of problem loans.

#### **Keywords**

Microloans, credit risk, non-performing loans (NPL), bank stability, credit portfolio, risk management, macroeconomic factors, commercial banks, Basel principles.

**Kirish.** Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida bank tizimi barqarorligi mamlakat moliyaviy xavfsizligini ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Bank sektorida amalga oshirilayotgan kreditlash operatsiyalari iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish bilan birga, muayyan darajada risklarni ham yuzaga keltiradi. Ayniqsa, so'nggi yillarda tijorat banklarida mikroqarzlarning hajmining keskin oshishi kredit portfelining tarkibida yangi tendentsiyalarni shakllantirmoqda.

Ilmiy adabiyotlarda bank risklarini baholash va ularni boshqarish masalalari keng o'rganilgan. Xususan, Asli Demirgüç-Kunt bank tizimining barqarorligi

risklarni to'g'ri aniqlash va boshqarish samaradorligiga bevosita bog'liq ekanligini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, Luc Laeven tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda bank inqirozlarining asosiy sabablaridan biri sifatida muammoli kreditlarning ortib borishi ko'rsatiladi.

O'zbekiston bank tizimida ham mikroqarzlarning segmenti faol rivojlanib, aholining moliyaviy xizmatlarga bo'lgan talabini qondirishda muhim rol o'ynamoqda. Biroq, ushbu kreditlarning aksariyati garovsiz va qisqa muddatli bo'lgani sababli, ularni nazorat qilish va risk darajasini aniqlash murakkab jarayonga aylanmoqda. Central Bank of Uzbekistan ma'lumotlari ham kredit portfelida muammoli kreditlar ulushi ayrim yo'nalishlarda yuqoriligicha qolayotganini ko'rsatadi. Shu sababli mikroqarzlarning bilan bog'liq risklarni chuqur o'rganish, ularni baholash tizimini takomillashtirish va nazorat mexanizmlarini kuchaytirish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb masala hisoblanadi.

Oxirgi yillarda shuni ko'rsatadiki raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi bank sektorida kredit jarayonlarini avtomatlashtirish imkoniyatlarini kengaytirdi. Bu esa kredit risklarini baholashda an'anaviy yondashuvlar bilan bir qatorda yangi raqamli yondashuvlarni joriy etish zaruratini yuzaga keltiradi. Ayniqsa, sun'iy intellekt va Big Data texnologiyalari asosida kredit mijozlarining xulq-atvori va moliyaviy faoliyatini chuqur tahlil qilish imkoniyati yaratadi. Bu texnologiyalar kredit qarorlarining aniqligini va shafofligini oshiradi va inson omilidan kelib chiqadigan xatoliklarni kamaytirishda yordam beradi. Real vaqt rejimida ma'lumotlarni tahlil qilish banklarga tezkor va samarali qaror qabul qilish imkonini beradi.

Natijada kredit portfeli sifati yaxshilanib, muammoli kreditlar ulushini kamaytirish imkoniyati yanada oshiradi. Bundan tashqari, raqamli skoring tizimlari mijozlar uchun kredit olish jarayonini soddalashtirib, xizmat ko'rsatish sifatini oshiradi. Shu bilan birga, kredit risklarini prognoz qilish aniqligi sezilarli darajada ortadi. Ushbu ko'rsatilgan omillar bank tizimining umumiy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqotda tijorat banklarida mikroqarzlarning bilan bog'liq risklarni o'rganish tizimli va kompleks yondashuv asosida amalga oshirildi. Tadqiqotning nazariy asosini bank risklarini baholash va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga oid ilmiy ishlanmalar tashkil etadi. Xususan, Asli Demirgüç-Kunt tomonidan ilgari surilgan bank barqarorligini baholash usullari hamda Luc Laeven tomonidan ishlab chiqilgan tizimli bank inqirozlari tahlili metodologik asos sifatida xizmat qildi.

Tadqiqot jarayonida, avvalo, O'zbekiston tijorat banklarining kredit portfeli tarkibi va mikroqarzlarning ulushining o'zgarish dinamikasi o'rganildi. Bu jarayonda Central Bank of Uzbekistan tomonidan e'lon qilingan statistik ma'lumotlardan foydalanildi. Ushbu ma'lumotlar asosida muammoli kreditlar darajasi va ularning vaqt bo'yicha o'zgarish tendensiyalari aniqlashtirildi.

Shuningdek, tadqiqotda muammoli kreditlarga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash maqsadida qiyosiy va tahliliy yondashuvlar qo'llanildi. Xalqaro tadqiqotlar, jumladan, turli mamlakatlar misolida olib borilgan ilmiy izlanishlar asosida makroiqtisodiy omillar va bank ichki siyosatining kredit risklariga ta'siri o'rganildi. Bu yondashuv mikroqarzlarning bilan bog'liq muammolarni kengroq kontekstda baholash imkonini berdi.

Bundan tashqari, kredit risklarini boshqarish tizimini baholashda normativ-huquqiy yondashuvdan ham foydalanildi. Xususan, Basel Committee on Banking Supervision tomonidan ishlab chiqilgan kredit risklarini boshqarish tamoyillari asosida tijorat banklarining amaldagi tizimi tahlil qilindi. Ushbu tamoyillar kredit portfelini boshqarish, risklarni monitoring qilish va muammoli kreditlarni kamaytirish bo'yicha muhim mezonlarni belgilab beradi.

Tadqiqot davomida olingan natijalar tizimlashtirilib, ular asosida mikroqarzlarning nazorat qilish mexanizmlarining samaradorligi baholandi hamda ularni takomillashtirish yo'nalishlari ishlab chiqildi.

**Muhokama va takliflar.** Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tijorat banklarida mikroqarzlarning portfelining kengayishi bilan bir qatorda muammoli kreditlar darajasi ham muayyan darajada ortib bormoqda. Bu holat, avvalo, kreditlarni ajratish jarayonida risklarni to'liq baholamaslik hamda mijozlarning to'lov qobiliyatini chuqur tahlil qilmaslik bilan bog'liq.

Xalqaro tadqiqotlar natijalari ham bu fikrni tasdiqlaydi. Xususan, turli mamlakatlar tajribasini o'rgangan olimlar muammoli kreditlar darajasiga makroiqtisodiy omillar bilan bir qatorda bank ichki boshqaruv tizimi ham sezilarli ta'sir ko'rsatishini qayd etadi. Shu nuqtai nazardan, mikroqarzlarning bilan ishlashda faqat kredit tarixiga asoslanish yetarli emasligi, balki mijozning joriy moliyaviy holatini ham hisobga olish zarurligi aniqlanadi.

Bundan tashqari, mikroqarzlarning aksariyati masofaviy tarzda ajratilishi sababli nazorat mexanizmlarida ayrim kamchiliklar mavjudligi kuzatiladi. Xususan, mijozni identifikatsiya qilish jarayonlarining yetarli darajada takomillashmaganligi firibgarlik risklarini oshiradi. Shu bois kreditlarning monitoring qilish tizimini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Basel Committee on Banking Supervision tavsiyalariga muvofiq, kredit risklarini samarali boshqarish uchun banklar kredit portfelini diversifikatsiya qilishi, risklarni doimiy monitoring qilishi hamda baholash tizimini muntazam takomillashtirib borishi zarur.

Kredit skoring tizimi – mijozning kredit to'lov qobiliyatini baholash va kredit berish bo'yicha qaror qabul qilish jarayonini avtomatlashtirishga xizmat qiluvchi tizim hisoblanadi. Ushbu tizimda banklar va moliyaviy tashkilotlarga mijozning moliyaviy xulqi, daromadi, kredit tarixi hamda boshqa muhim ko'rsatkichlar asosida risk darajasini aniqlash imkonini yaratadi.

An'anaviy skoring tizimlari asosan kredit byurolari ma'lumotlari va hujjatli tahlillarga tayangan holda ishlaydi. Biroq so'nggi yillarda sun'iy intellekt (AI) va Big Data texnologiyalarining rivojlanishi natijasida takomillashtirilgan skoring tizimlari keng joriy etilmoqda. Bu tizimlar real vaqt rejimida katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilib, aniqroq va tezkor qaror qabul qilish imkonini beradi.

### 1-jadval.

#### Kredit skoring tizimlari samaradorligini qiyosiy baholash

Ko'rsatkichlar	An'anaviy skoring (Kredit ma'lumotlari)	skoring byurosi	Takomillashtirilgan skoring (Sun'iy intellekt va Big Data)
Baholash aniqligi	60-65%		85-92%
Qaror qabul qilish vaqti	1-3 ish kuni		3-15 daqiqa
Inson omili ta'siri	Yuqori		Minimal (deyarli yo'q)
Firibgarlikni aniqlash	Past (faqat hujjat asosida)		Yuqori (biometriya va xulq-atvor tahlili asosida)

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, takomillashtirilgan kredit skoring tizimi an'anaviy tizimga nisbatan sezilarli ustunlikka ega. Eng avvalo, baholash aniqligi 85-92% gacha oshgani risklarni aniqroq aniqlash imkonini beradi. Shuningdek, qaror qabul qilish vaqti 1-3 ish kundan 3-15 daqiqagacha qisqarishi bank xizmatlarining tezkorligini oshiradi.

Bundan tashqari, inson omilining minimal darajaga tushirilishi subyektiv xatoliklarni kamaytiradi va tizimning ishonchligini oshiradi. Firibgarlikni aniqlash imkoniyatining yuqoriligi esa biometrik va xulq-atvor tahlili asosida xavfli operatsiyalarni oldindan aniqlashga yordam beradi.

Umuman olganda, sun'iy intellekt va Big Data asosidagi skoring tizimlari bank sektorida kredit risklarini boshqarish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Yuqoridagi tahlillar asosida quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin. Avvalo, mikroqarzlarni bo'yicha kredit skoring tizimini takomillashtirish zarur. Bu jarayonda mijozning faqat kredit tarixi emas, balki uning daromad manbalari va xarajatlari ham hisobga olinishi lozim. Shuningdek, muammoli kreditlarni erta aniqlash mexanizmlarini joriy etish orqali risk darajasini pasaytirish mumkin.

Bundan tashqari, kredit monitoring tizimini kuchaytirish va kredit portfelini diversifikatsiya qilish orqali banklar o'z moliyaviy barqarorligini ta'minlashi mumkin. Ushbu choralar mikroqarzlarni bilan bog'liq risklarni kamaytirishga xizmat qiladi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, tijorat banklarida mikroqarzlarni ajratish va ularni nazorat qilish tizimi bank faoliyatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, mikroqarzlarni bank kredit portfelini kengaytirishda muhim rol o'ynaydi, biroq ular bilan bog'liq kredit risklari darajasi nisbatan yuqoriroq bo'lib qolmoqda.

Ilmiy adabiyotlarda Asli Demirgüç-Kunt va Luc Laeven tomonidan ta'kidlanganidek, bank tizimi barqarorligi kredit risklarini to'g'ri baholash va samarali boshqarishga bevosita bog'liq. Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston tijorat banklarida ham muammoli kreditlar (NPL) darajasini kamaytirish dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Tadqiqot davomida mikroqarzlarni bo'yicha asosiy muammolar sifatida kredit skoring tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligi va nazorat mexanizmlarining ayrim kamchiliklari aniqlandi. Basel Committee on Banking Supervision tavsiyalariga muvofiq, kredit risklarini boshqarishda monitoringni kuchaytirish, kredit portfelini diversifikatsiya qilish va erta ogohlantirish tizimlarini joriy etish muhim hisoblanadi.

Umuman olganda, mikroqarzlarni nazorat qilish tizimini takomillashtirish banklarning moliyaviy barqarorligini oshirishga va kredit risklarini kamaytirishga xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Demirgüç-Kunt A. (2013). *Measuring Banking Risk and Stability*. World Bank Publications.

2. Laeven L. (2020). *Systemic Banking Crises Revisited*. IMF Working Papers.
3. Isakov O. (2024). O'zbekiston bank tizimida muammoli kreditlar va makroiqtisodiy omillar tahlili.
4. Rustamov J. (2025). Tijorat banklarida muammoli kreditlar dinamikasi va ularni boshqarish.
5. Kozarić A., Žunić-Dželihodžić E. (2020). Determinants of Non-Performing Loans: Evidence from Bosnia and Herzegovina.
6. Erdas M., Ezanoglu Z. (2022). Bank-Specific Factors and Non-Performing Loans in G20 Countries.
7. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki (2025). Bank sektori bo'yicha statistik ma'lumotlar. [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz)
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining bank tizimini isloh qilishga oid farmon va qarorlari.
9. Basel Committee on Banking Supervision (2019). *Principles for the Management of Credit Risk*.
10. World Bank (2021). *Banking Sector Risk Assessment*.